INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA OTMLARDA BOSHQARUV XODIMLARINING STRESSNI BOSHQARISH VA UNI BARTARAF ETISH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sariboyev N. A.,GDPI o‘qituvchisi
E-mail: sariboyevnurali5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda bugungi kunda insonlarning muammolaridan biri bo‘lgan stressni va uni yengish usullari,innovatsion menejment haqida tushuncha OTMlarda boshqaruv xodimlarining stressni boshqarish va uni oldini olish bartaraf etish imkoniyatlarini takomillashtirish shuningdek bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish va samarali tashkil qilish.

Kalit so‘zlar. stress, innovatsiya, usul, sabab, manba, natija, yo‘nalish, mehnat, jarayon, holat, muammo, biznes, ishbilarmonlik, yangilik, maqsad, psixologik, yo‘l, stressor, shakl, mohiyat,vosita

Annotation. In this article, stress whжich is one of the problems of people today ,and the ways to overcome it, the of innovative management, the improvent of management and management employees’ ability to prevent and eliminate stress,as well as the efficient use and efficient use and effective organazation of their free time.

Key words. stress, innovation, methods, cause, source, result, direction, work process, situation, problem, business, entrepreneurship, innovation, goal, pschological path,stressor,shaki is the essence,the means.

KIRISH

Bugungi kunda insonlar juda ko‘p muammolarga duch kelishmoqda shular ichida inson uchun foydali ham zararli ham bo‘ladiganlari uchrab turadi. Nima sababdan insonlar muammolar girdobida qolishadi bazan shunday vaziyatlar ham bo‘ladiki odamlar juda qattiq qayg’uga botib qolishadi bularning asosiy sababi insonlar o‘zlarini to‘g’ri, to‘liq anglay olmasliklari o‘zlariga nima kerak ekanligini vaqtida tushunib yetmasliklari natijasida vujudga keladi. Insonga atrofdagilarning tasiri ham o‘ta yuqori darajada seziladi. Shaxs jamiyatdan orqada qolmaslikka har doim yuqorida bo‘lishga intilib yashaydi,shunday insonlar ham borki ular o‘zlarining qiziqishlarini emas balki o‘zgalarning fikrlari, ularning gap, so‘zlari asosida yashaydi. Hayotda juda ko‘p insonlarda uchraydigan muammolardan eng yomonlaridan biri bu- stressdir.

O‘qituvchilar boshqa kasb egalariga qaraganda stressga qarshi kurashuvchan insonlardir .Ular o‘zlarida vujudga kelgan muammolarni bartaraf qilishga ularga yechim topishga harakat qilib ularni tezroq yengib o‘tishadi. Bugungi kunda nima uchun insonlar tez stressga tushib qolishadi? Bunga juda ko‘p sabablarni keltirish mumkin shulardan biri ulardagi iqtisodiy va manaviy yetishmovchiliklardir.Inson qachonki bir qiyinchillikka uchrasa va u sababli qattiq tushkunlikka tushib qolsa demak buning natijasi kuchli stresslarga olib keladi.

Hayotda hamma ham qiyin vaziyatlarga duch keladi ularni aql bilan to‘g’ri mulohaza qilish orqali yengib o‘tish mumkin ammo biz insonlar nima qilamiz tezda tushkunlikka tushib shu muammo girdobida qolib ketamiz buning oqibatida eng katta boylik bo‘lgan so‘g’ligimizga zarar yetkazib qo‘yamiz. O‘qituvchi-pedagoglar ham doimo o‘z asab buzilishlarga yo‘l qo‘ymasliklari ularni yengib o‘tishlari kerak. Pedagoglar ko‘p hollarda aqliy mehnat bilan ko‘p shug’ullanishlari va boshqa mehnat faoliyatiga vaqt ajratmasliklari tufayli ham stressga ko‘proq moyil bo‘lishadi.Inson bir faoliyat turi bilan tinmasdan hech qanday boshqa faoliyat turlariga chalg’imasdan shu asosiy faoliyati bilan uzoq vaqt shug’ullanishi natijasida ish turidagi qiyinchilikni yengib o‘tishi murakkablashib o‘zi bilmagan holda stressga tushib qolishadi. Bugungi kunda insonlarga foyda keltiradigan mashg’ulot turlari kun sayin ko‘payib,rivoj topib bormoqda,bunday mashg’ulotlarni o‘rganish ulardan samarali foydalanish kerak. Masalan OTMlarda boshqaruv xodimlarining faoliyatiga qo‘shimcha tarzda innovatsion menejment sohasini o‘zlashtirib olishlari birmuncha oson bo‘lishi mumkin. Bu orqali ular ish faoliyatiga qo‘shimcha tarzda o‘rganishlari mumkin ekan. Innovatsion menejment o‘zi nima?

Innovatsion menejment- bu yangi turdagi tovarlarni,ishlab chiqarishning yangi usullarini, yangi bozorlarni o‘zlashtirishni joriy etish va ulardan foydalanish maqsadida tadbirkorlik ruhi asosida ishlab chiqarish omillarini o‘zgartirish sohasidir.Innovatsion menejment faoliyat yo‘nalishlari quyidagilar taalluqli;

1.maqsadni qo‘yish, strategiyani tanlash

2.Bosqichlarni rejalashtirish

3.Sharoitlarni aniqlash va tashkil qilish

3.Ijro etish, rahbarlik.

Innovatsion menejmentni o‘zlashtirish orqali yangi rivojlanayotgan sohalarni yaratish ularni takomillashtirish uchun imkon yaratadi.

Innovatsion menejment asosida yangi mahsulot turlarini yaratish ularni keng ommaga tatbiq qilish orqali boshqalar uchun ham foydali bo‘lgan sharoitlarni ham yaratish mumkin bo‘lgan.

Innovatsion menejment asosida boshqaruv xodimlarining g’oyalarini amalga oshirish ularni takomillashtirish yanada ko‘proq yangiliklarni yaratish mumkin ekan,innovatsiyalarni to‘g’ri yo‘naltirish orqali yaxshigina bilim va malakaga ega bo‘lish ularni moddiy to‘ldirib borish ham talab qilinar ekan.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak inson hech qachon bir joyda to‘xtab qolmasdan doimo harakatda bo‘lishi,o‘z yangi g’oyalarini yaratib borishi jamiyat tarraqiyoti,yuksalishi uchun izlanishda bo‘lishi darkor.Odamlarda bo‘sh vaqtning ko‘p bo‘lishi,zerikish ,ma’naviy bo‘shliqning paydo bo‘lishi,tushkunlikka tushib qolish ,rivojlanishdan orqada qolib ketish ham streeslarning paydo bo‘lishi uchun imkon yaratadi.Yangiliklarga moyil bo‘lish, innovatsiyalarni ,turli foydali usullar orqali bo‘sh vaqtni to‘g’ri tashkil qilish orqali yaxshi natijalarga erishsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2020. – 80 b.
2.O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406 / http://lex.uz
3.Agabekov S.I. Analiz sprosa na innovasionniy chelovecheskiy kapital // Sosiologicheskie issledovaniya, №11, 2001. –S. 56-60.
4.Adolf V.A. Professionalnaya kompetentnost sovremennogo uchitelya. Monografiya. - Krasnoyarsk, 1998. - 310 s.